

“AQL VA AQLSIZLIK” KONSEPTIGA OID PAREMALARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Mirzayeva Dilshoda Ikromjonovna

Farg‘ona Davlat Universiteti Chet tillari fakulteti Ingliz tili kafedrası mudiri

O‘rmonova Maftuna Farhodjon qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti Lingvistika (Ingliz tili)2-kurs Magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ingliz va o‘zbek tillaridagi “Aql va aqlsizlik” konseptiga oid paremalarning ilmiy-nazariy asoslanishi, lingvokulturologik jihatdan o‘rganish, uslubiy-semantik strukturasi ustida ishlash va mavzuga oid maqollarni tasniflash, ularning o‘ziga xos jihatlari va ularning ushbu tillarda ifodalanishi haqida ilmiy ma’lumotlarga izoh va tushunchalar berilgan va bu boradagi tasviyalarni ishlab chiqish ishning maqsadini belgilaydi.

Kalit so‘zlar: Lingvokulturologiya, konsept, paremalar, madaniyat, til, aloqa, tilshunoslik.

LINGUISTIC STUDY OF PROVERBS ABOUT THE CONCEPT “INTELLIGENCE AND UNINTELLIGENCE”

ABSTRACT

In this article, the scientific justification of the studies related to the concept of “Intelligence and unintelligence” in English and Uzbek languages. Linguistic-cultural study, working on the methodological semantic structure and classification of the articles on this topic, their aspects and their explanations are given to the scientific

information about the expression in languages and the development of the proverbs in this regard defines the purpose of the work.

Key words: Linguoculturology, concept, proverbs, culture, language, connection, linguistics.

Til madaniyatni aks ettiruvchi ko‘zgu bo‘lib, u faqat insonni o‘rab turgan borliqni emas, balki uning real yashash sharoitlarining ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi, uning milliy xarakteri, mentaliteti, hayot tarzi, axloqi, qadriyatlari yig‘indisi va dunyoqarashini ham aks ettiradi. Chunonchi, til ijtimoiy hodisa bo‘libgina qolmay, madaniyat bilan ham chambarchas bog‘liqdir. “Sorokinning fikricha, til madaniyatning milliy komponentlari orasida birinchi o‘rinda turadi.”⁸ Til madaniyatga kishilik jamiyatining ham muloqot vositasi, ham ushbu muloqotni uzib qo‘yuvchi vosita bo‘lishiga yordam beradi. Til-uning sohiblarining muayyan jamoaga tegishli ekanini ko‘rsatadi.

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro uzviy ta’siri va aloqasini o‘rganuvchi va bu jarayonlarining lisoniy va nolisoniy birliklarning bir butun strukturasi sifatida o‘zida aks ettiradigan alohida yaxlit kompleks ilmiy sohadir. U tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari o‘rtasida vujudga kelgan umumlashma fan bo‘lib, til va madaniyatning chambarchas bog‘liqligini shakllanishi hamda rivojlanishini, bir tarafdin lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o‘rni, ikkinchi tarafdin esa, til faktoridagi insonning o‘rnini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko‘rindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyann,

⁸Сорокин Ю. Статус переводчика и психогерменевтические процедурию. – “Гнозис”,2003. – 160с.

A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi.⁹

Ana shu g‘oyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi va natijada hozirda keskin sur’atlarda rivojlanayotgan bo‘limlardan biri bo‘lib kelmoqda.

“Konsept tushunchasi har bir shaxs uchun individual va jamiyat uchun umummilliy bo‘lgan, ong, til va ruhiyatning bog‘liqligida kechuvchi jarayondir. Konseptlar inson ongida nafaqat so‘zning lug‘aviy ma’nolari asosida, balki shaxs hamda butun bir xalqning madaniy-tarixiy tajribasidan kelib chiqib paydo bo‘ladi. Tajriba qancha boy bo‘lsa, konseptning chegarasi shunchalik keng bo‘ladi. Aynan shunday holatda konsept o‘zini har tomonlama namoyon eta oladi. Zotan, konsept dunyoni bilish va u haqda o‘z tasavvuriga ega bo‘lish va tilshunoslikda yanada chuqur o‘rganishni taqozo etadigan mavzu. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotishini ham o‘z fikrlarida bayon etgan. Qolaversa, har bir konsept murakkab mental uyg‘unligi, ma’noiy tuzilishidan tashqari insonni ifodalayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy individual komponentlarni o‘z ichiga olishini ta’kidlaydi.¹⁰ Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo‘llanuvchi birlik sanaladi.

Paremalar avloddan avlodga faqat og‘zaki holdagina o‘tib kelganligi, xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lganligi uchun adabiyotshunoslikning o‘rganish ob’yekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko‘pincha she’riy shaklga o‘xshaydi va ularda o‘xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo‘llanadi. Shu bilan birga paremlar so‘zlardan tuzilib, ma’lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo‘lgani uchun tilshunoslikning ham o‘rganish ob’yektidir. Paremalar to‘plash, o‘rganish Mahmud Koshg‘ariy (“Devonu lug‘otit

⁹ Maslova V.A. Lingvokul’turologiya [Linguoculture]. Moscow, 2019. (In Russ.).

¹⁰ Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. Jizzax -2006.

turk”) va Gulxaniy (“Zarbulmasal”) zamonlaridan to hozirgi kunlarga davom etib kelmoqda.

Paremalarni biz keng ma’nodagi maqollarga sinonim ravishda ishlatsak bo’ladi. Maqol hamma vaqt aniq, tugal fikr anglatadi. Bu fikr esa qat’iy, lo’nda xulosa sifatida ifodalanadi. Fikriy lo’ndalik esa fikrni ixcham ifodalashga imkon beradigan ikki mantiqiy markazdan tashkil topgan yaxlit kompozitsiya asosida yuzaga keladi. Shuning uchun ham maqolda biror ortiqcha so’z, tasviriylilik va tavsifiylilik uchramaydi, chunki maqoldagi ixcham fikrning o’zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi. Bu mohiyatning yuzaga chiqishi hamma vaqt ixcham badiiy shakl sifatida amalga oshadi. U yoki bu maqolning konseptini, unda aniq deyilyotganini aniqlash uchun maqolda keltirilgan obrazlarning mohiyatini to’g’ri anglamoq kerak. Ko’pgina maqollarning to’g’ri va majoziy ma’nolarini aniq dalillar bilan, shak-shubhaga o’rin qoldirmaydigan qat’iy xulosalar asosida to’laqonli ifodalab berishning imkoni yo’q albatta. Biz ingliz va o’zbek tilidagi maqollarning izohini turli xil manbalardan foydalangan holda ulardan anglashilgan “Aql va aqlsizlik” konseptini to’laqonli yoritib berishga harakat qildik.

Aql – odamning oltin toji. Aqldan ortiq boylik yo’q.

Maqol majoziy ma’nodadir. Inson aqli oltin tojga qiyoslanyapti. Inson o’z umrini mazmunli va ma’murchilik bilan o’tkazishi uchun avvalo o’zini o’rab turgan borliqni bila olishi, yuksak aql va tajriba egasi bo’lishi darkor. Xalqimiz o’zining bir qancha maqollarida aql va aql egalarini madh etadi, ularning hayotdagi yutuqlarini ko’rsatadi, aqlsizlik, johillik, nodonlik, farosatsizlikni qoralaydi. Bu maqollarning barchasida mana shu g’oya ilgari surilgan.

Ahmoqning katta-kichigi bo’lmas. Aqliga aytsang biladi, ahmoqqa aytsang kuladi.

Maqolning so’zma-so’z o’zining anglatgan tushunchasiga ma’nosi teng keladi. “Ahmoq keng ma’nodagi so’z bo’lib, uni aql-farosatsiz, badfe’l, dilozor, quruq maqtanchoq, daydi, noshud, nodon, xudbin” va shu kabi illat egalariga nisbatan ishlatiladi. Yuzlarcha maqollarimizda ana shunday kishilar qoralanadi, ularning butun

kirdikorlari ochib tashlanadi, ular ustidan zaharxanda bilan kulinadi. Ahmoq, befahm, beidrok odam bir ishni o‘ylamay netmay, shosha-pisha qilib qo‘yadida, keyin didiga yoqmay qolsa, yo pand yeydi, yo yomon oqibatga duchor bo‘ladi.¹¹

Ushbu maqollar tahlilidan o‘quvchi o‘zbek xalqining asrlar mobaynida sayqal topib, bizgacha yetib kelgan “Aql va aqlsizlik” konseptini to‘laqonli talqinda mazmun-mohiyatini maqollar misolida bilib oladi.

Ingliz tilida “Aql va aqlsizlik” konsepti o‘zbek tilidan tamoman boshqacha yo‘lda talqin qilinadi. O‘zbek tilida asosan bu tushunchanini bevosita aql so‘ziga yaqin so‘zlarga yondoshgan holda talqin qilsak, ingliz tilida bu ko‘proq gap kontekstiga va madaniyatiga borib taqaladi.

Don’t teach your grandmother to suck eggs. (Qari bilganni –pari bilmas)

Buvingizga tuxum chaqishni o‘rgatmang. Sizdan tajribaliroqlarga maslahat bermang. Maqol ko‘pincha qaytarma shaklida qo‘llaniladi. Zero, o‘zidan katta shaxslarga aql o‘rgatish bu nodonlikdan, kaltafaxmlikdan dalolat beradi. Shuning uchun, bu naqldan qanday foydalanayotganingizga ehtiyot bo‘ling.

One is never too old to learn. (Hechdan ko‘ra kech.)

O‘rganish uchun hech qachon kech bo‘lmaydi, qanchalik ko‘p bilsangiz ham, o‘rganish uchun har doim ko‘p narsa bor va yoshingiz qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, siz hali ham bilimingizni oshirishingiz mumkin. Tsitseron "dono va yaxshi o‘qitilgan odamlarda yoshi bilan har qadamda o‘sib boruvchi o‘rganish g‘ayratini" nazarda tutadi. Buyuk italyan haykaltaroshi va rassomi Mikelanjeloning eng sevimli so‘zi bu edi: "Men o‘rganyapman".¹²

Ingliz maqollarida “aql” konseptini to‘laqonli tushunish uchun, o‘quvchi nafat ingliz tilini bilishi balki, ingliz madaniyatiga xos yetarlicha bilim va ko‘nikmalari bo‘lishi shart . Chunki, maqollarda aql tushunchasini anglatuvchi so‘z yoki birikmalar asosan bilvosita yo‘l bilan anglashidi.

¹¹ "Hikmatnoma"(O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati).

¹² "English proverbs explained" by Ridout,Ronald

O‘zbek va ingliz tillaridagi “Aql va aqlsizlik” mavzulariga oid bir qancha maqollarni semantik tahlil qilib, ma’no jihatidan bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlarini o‘rganib chiqishga harakat qildik.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek va ingliz tillaridagi ko‘pchilik “Aql va aqlsizlik” mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma’no-mazmunga egadir. Faqat ko‘p holatlarda har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so‘zlardan foydalanilmagan. Odatda tarjimada turlicha ma’noga ega bo‘lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma’no anglatishi kuzatiladi. “Aql va aqlsizlik” mavzusiga doir ingliz va o‘zbek maqollarining barchasida aqllilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo‘lsa, aqlsizlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko‘rsatiladi.

REFERENCES:

1. Сорокин Ю. Статус переводчика и психогерменевтические процедурию. – “Гнозис”, 2003. – 160с.
2. Maslova V.A. Lingvokulturologiya [Linguoculture]. Moscow, 2019. (In Russ.).
3. Safarov Sh. Kognitiv lingvistika. Jizzax -2006.
4. "Hikmatnoma"(O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati).
5. “English proverbs explained” by Ridout, Ronald
6. <http://www.edu.uz/>
7. www.google.uz
8. [www.google](http://www.google.com) scholar.